

## TEXNIKA SOHASI MUTAXASSISLARINING KASB DOIRASIDA O'ZBEK TILI NUTQIY SAVODXONLIK VA MADANIYATI NI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI

*Shermatova Dilfuza Yakubjanovna*  
*NamMQI, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini,*  
*katta o'qituvchi*

*E-mail: [shermatovadilfuza57@gmail.com](mailto:shermatovadilfuza57@gmail.com)*

*telefon: +998945060858*

**ANNOTATSIYA.** Maqolada o'zbek tili ta'limining mamlakatimiz miqiyosida dolzarbligi, oliy ta'limning texnika yo'nalishi talabalarida nutqiy savodxonlik va madaniyat, rasmiy ish yuritish, o'zbek tili darslarida o'qituvchi va o'quvchilarda nutqiy kompetensiyani tarbiyalash, nutq tadbirkorligining ayrim yo'llari, usullari haqida mulohazalar yuritilgan. Millat farzandi nutqini rivojlantirish barcha fan o'qituvchilari zimmasiga mas'uliyatli vazifa yuklashi va bu borada samarador usul va metodlarni qo'llash takliflari berilgan.

**KALIT SO'ZLAR.** O'zbek tili, uzluksiz ta'lim tizimi, og'zaki va yozma muloqot, nutqiy faoliyatni rivojlantirish, nutqiy madaniyat, kompetent yondashuvga asoslangan ta'lim.

O'zbek tili xalqimiz va uning tili takomili, rivoji va taraqqiyoti bilan qadam-baqadam sayqallanish va yangilanish asosida hozirgi darajaga yetib kelgan. Bugungi kunda o'zbek tili muayyan yutuq va natijalarga erishgan bo'lsa-da, uning bo'lg'usi mutaxassislariga o'rgatilishi borasida hali oldimizda turgan qator va katta vazifalar mavjud.

Birinchi navbatda uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek tilini o'qitishning sifatini tubdan oshirishni, barcha sohalarida og'zaki va yozma muloqotning davlat tilida yuritilishini taqozo qiladi. Davlat tilida ish yuritishning qay darajada yo'lga qo'yilganligi, ya'ni hujjatlashtirilgan shakldagi axborotlar almashinuvining to'g'ri va sifatli amalga oshirilishi, qabul qilingan qarorlarning o'z muddatida ijrochilarga yetib borishi va bajarilishining ta'minlanishi, axborot-malumotlarning tezkor uzatilishi boshqaruv tizimining faoliyatini belgilovchi omillardir. Shu tufayli sohaga oid rasmiy hujjatlar bilan ishlash malakasiga ega bo'lish bugungi kunda oliy ma'lumotli mutaxassisga qo'yilayotgan eng muhim talablardan biridir. Qolaversa, davlat tiliga avvalgidan bugun e'tibor kuchli. Yangi-yangi tilga doir islohotlar amalga oshirilmoqda. Tilning nodir jihatlari va ma'naviy boyligimiz sifatidagi ahamiyati yanada ortib bormoqda.

O'zbekiston Prezidenti to'g'ri ta'kidlaganidek, "Tilimizdagi mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shavfqat, qadr-qimmat degan bir-birini chuqur ma'no-mazmun bilan boyitadigan va to'ldiradigan iboralarni olaylik. Qanchalik, g'alati tuyulmasin, bu iboralarni boshqa tillarga aynan tarjima qilishning o'zi mushkul bir muammo. Shuni aytish lozimki, bu tushunchalar kimdir shunchaki o'ylab topgan shirin kalom quloqqa xush yoqadigan so'zlar emas. Bunday tushunchalar asrlar mobaynida el-uyrtimizning dunyoqarashi, ma'naviy hayotining negizi sifatida vujudga kelgan, ongu shuurimizdan chuqur joy olgan buyuk qadriyatlarning ommaviy ifodasidir"[1].

Mutaxassisning davlat tilida kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lishi, xususan, uning o'zbek tilining imlosini, nutq uslublari qoidalarini qay darajada egallaganligiga, rasmiy ish uslubida hujjatlar matniga qo'yiladigan talablarni bilishi va ish faoliyatida ularga rioya qilishiga bog'liq. Har bir soha mutaxassislarining o'z kasbi doirasida nutqiy savodxonlik va madaniyatga ega bo'lishi ma'naviyatimizning asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Xususan, texnika soha mutaxassisining chet ellik fuqarolar bilan davlat nomidan ish ko'rishi, bevosita aholining ko'p sonli qatlami bilan muloqot uyritishi bu sohalar mutaxassislarining O'zbekistonning davlat tilini talab darajasida bilishlari zaruratini yuzaga keltiradi.



“Ta’lim to’g’risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida Respublikamiz ta’lim tizimida amalga oshirilgan tub islohotlar mamlakatimizda shaxsga yo’naltirilgan ta’limni joriy etishga, ya’ni har tomonlama bilimli, dunyoqarashi keng, komil insonni tayyorlashga qaratilgan bo’lib, bunga kasbiy ta’limni kuchaytirish, yoshlarni turli kasblarni mukammal o’rganishga jalb qilish orqali erishish mumkin. Buning uchun talabalarni uzluksiz ta’lim bosqichlarida turli sohalar bo’yicha egallagan bilimlarni kundalik hayotda amaliy qo’llashga o’rgatish orqali ularda kasbiy ko’nikma va malakalarni hosil qilish kerak bo’ladi. Shundan kelib chiqib, bugungi kunning asosiy vazifalardan biri ta’lim muassasalarida talabalarga nafaqat o’quv rejasida belgilangan fanlar bo’yicha bilim berish hamda egallagan bilimlar asosida ko’nikma va malakalar hosil qilish, balki ularda ushbu bilim, ko’nikma va malakalarni amaliyotda qo’llay olish layoqatini shakllantirishdan iborat.

Shu bois keyingi yillarda barcha fanlarni o’qitishda kompetent yondashuvni joriy etish, barcha ta’lim bosqichlarida o’qitiladigan fanlar bo’yicha Davlat ta’lim standartlarini kompetent yondashuvga asoslangan holda takomillashtirish vazifasi o’rtaga qo’yildi.

Ma’lumki, Davlat ta’lim standarti har bir fan asoslarini muayyan ta’lim bosqichlarida o’qitish tamoyillarini belgilab beruvchi asosiy me’yoriy hujjat hisoblanib, unda mazkur fanni o’qitishning maqsad va vazifalari ham belgilab beriladi. Xususan, o’zbek tili fanidan Davlat ta’lim standartlari respublikamizdagi ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan umumiy o’rta ta’lim maktablari va texnikumlar qamrab olingan.

Davlat tili ta’limini oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim rus tilida olib boriladigan guruhlarda o’qitish maqsadi va vazifalarini belgilab beruvchi asosiy normativ hujjatdir. Davlat ahamiyatiga ega bo’lgan mazkur asosiy hujjatda boshlang’ich (2-4-sinflar), o’rta umumiy ta’lim (5-11-sinflar), o’rta maxsus ta’lim hamda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilar o’zlashtirishi zarur bo’lgan bilimlar hamda ular asosida egallashlari kerak bo’lgan ko’nikma va amaliy malakalarning kompetensiyaviy talablari beriladi [2].

Kompetent yondashuvga asoslangan ta’lim o’quvchi-talabalar tomonidan egallangan bilim, ko’nikma va malakalarni shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatda amalda qo’llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo’naltirilgan ta’limdir. Bunday ta’lim o’quvchi-talabalarda mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo’lish, tashabbuskorlik, kasb-hunarni ongli ravishda tanlash, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, sog’lom raqobat hamda umummadaniy ko’nikmalarni shakllantiradi.

Ma’lumki, uzoq vaqt qo’llanib kelgan an’anaviy ta’lim tizimi o’quvchi-talabalarga asosan nazariy bilimlarni berish, ayrim fanlar bo’yicha xususiy malaka va ko’nikmalarni shakllantirishdan iborat bo’lgan.

Bu jarayonda ta’lim oluvchilar tayyor axborot va ma’lumotlarni qabul qilishlari va o’zlashtirishlari darajasi baholangan. Biroq, baholar o’quvchi-talabaning keyingi hayotida va mehnat faoliyatida qanday o’rin tutadi, ulardan qanday foydalanish mumkinligi aksariyat hollarda e’tibordan chetda qolgan.

Bugungi ta’lim o’quvchi-talabaning oldiga tayyor bilimlarni emas, muammolarni qo’yadi. Bu muammolarni hal qilishga o’rganish shaxsni ta’lim jarayonidayoq kelgusi hayotga va kasbiy faoliyatga amaliy jihatdan tayyorlashni nazarda tutadi.

Bir qator tadqiqotlarda tahlil qilingan ta’limga kompetent yondashuv hamda an’anaviy yondashuv borasidagi fikrlarni umumlashtirgan holda, ular orasidagi asosiy farqlarni quyidagicha ifodalash mumkin:



O`quvchi-talabalarning kompetentligini shakllantirish bugungi kunda ta`limning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Kompetent ta`lim g`oyasi zamonaviy jamiyat tomonidan ta`limning natijasi qanday bo`lishi kerak va qanday bo`lishi talab qilinadi degan savolga javob berishi kerak. Kompetent yondashuvni esa ta`lim sifatini ta`minlash va bu masalani an`anaviy yo`l bilan, ya`ni o`zlashtirilishi lozim bo`lgan ma`lumot hajmini oshirish hisobiga hal qilib bo`lmaslik orasidagi ziddiyat tufayli yuzaga kelgan muammoli holatdan chiqish sifatida talqin qilish mumkin. Kompetent yondashuv talabalarga hayotda o`z o`rniga ega bo`lish, o`zini muntazam rivojlantirib borish uchun zarur sharoitlar yaratib beradi.

Tilni immanent birliklar tizimi sifatida o`rganish bevosita kuzatishda berilgan nutqiy birliklarning doimiy, markaziy belgilar bilan o`zgaruvchan, chegara belgilar yig`indisidan iborat ekanini ko`rsatdi. Chegara belgilarni soqit qilish yo`li bilan barqaror belgilarni aniqlash hamda ularni lisoniy qoliplarda (lingvistik modellarda) aks ettirish, lisoniy qolipning nutqiy voqelanishi qonuniyatlarini tekshirish nafaqat tilshunoslikning, balki fanlar integratsiyasi asosida barcha ilmiy sohalar uchun dolzarb vazifasiga aylandi. Ushbu masala yuzasidan so`nggi yillarda qator tadqiqot va amaliy jarayonlar o`tkazilib, nutqiy birliklarning bevosita kuzatishda berilmagan yashirin jihatlariga aniqlik kiritildi.

Ona tili darslarida o`qituvchi o`quvchilarda nutqiy kompetensiyani tarbiyalashga asosiy diqqatni qaratish maqsadga muvofiqligi belgilab qo`yilgan qoidadir. Nutq tadbirkorligining ayrim yo`llari, usullari haqida mulohazalar uyritish davri keldi. Millat farzandi nutqini rivojlantirish barcha fan o`qituvchilari zimmasidaga vazifa.

Hozirgi kunda yangi Davlat ta`lim standartlari yaratilib, maktabgacha tarbiya muassasalari, maktablar, umuman, ta`lim muassasalari zamonaviylik asosida bo`lishi etilmoqda. Fuqarolarimizning intellektual salohiyati o`sib, tabiat, jamiyat sirlarini, fan asoslarini o`rganishga bo`lgan qiziqishlari yanada ortmoqda.


O`ylab ko`rsak, o`quvchi bolalar bog`chasidan boshlab, maktabda, akademik litseylar, texnikum va hatto oliygohlarda ham nutq kompetensiyasini shakllantirishga harakat qilinadi. Vaholanki, buning samarasi qay darajada? Aksariyat balog`at yoshidagilarning oddiy ish qog`ozlarini mustaqil ravishda to`ldira olmasliklari, o`z fikr-mulohazalarini og`zaki yoki yozma bayon qila olmasliklari har qanday kishini o`ylantiradi. Ularga yillar davomida o`z tilimizda – o`zbek tilida ta`lim beramiz-ku?!

Darhaqiqat, ona tilini o`qitishdan asosiy maqsad o`quvchilarda o`z ona tilida fikrni to`g`ri, aniq, ravshan va go`zal ifodalay olish ko`nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir.

So`zlarni to`g`ri tanlash, o`z nutqni tinglovchiga qulay tarzda etkaza olish insoniy madaniyatning eng asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun barcha fan o`qituvchisi o`quvchiga har bir so`z, birikma va gapni barcha qirralari bilan to`g`ri, o`rinli ishlata olishni o`rgatish, o`z nutqiga nisbatan ehtiyotkorlik tuyg`usini shakllantirishi masalaning echimlaridan biri.

Turli qo`llanma va darslik hamda risolalarda muloqot kategoriyasining mazmuni va mohiyati, namoyon bo`lish shakllari, jamiyatning ijtimoiy jarayonlarida ro`y berayotgan o`zgarishlar bilan bog`liq masalalar batafsil bayon qilingan.

Sharqona – o`zbekona muomala va muloqot masalalari 20-asrning 90-yillarigacha xatto falsafiy qo`llanma va darsliklarda alohida mavzu sifatida o`z o`rnini topmadi. Xullas, o`quvchilarning nutqiy kompetensiyasi masalalari bugungi kunlarga maxsus falsafiy, ijtimoiy, pedagogik bilimlar sohsiga aylana oldi.



Respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalari texnik yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarning nutqiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan mavzudagi mazkur dissertatsion tadqiqot ishining eng muhim ahamiyatli va dolzarbligini ko'rsatib turuvchi jihati ham oliy ta'lim texnik yo'nalishi talabalarining nutqiy muloqoti masalalari bo'yicha mashg'ulotlarga yondashuvlarning va qarashlarning o'zbek pedagogikasida zaruriy jarayon ekanligini ko'rsatib berishimizdir.

Darhaqiqat, oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi ham ona tilini o'qitish orqali talabalarning ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va ilmiy-nazariy ma'lumotlarni amaliyotga tatbiq etish usullari, o'quvchilarning kommunikativ savodxonligini oshirish, ona tili mashg'ulotlarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish, ona tili ta'limi mazmunini yangilash, nutq va tafakkur o'stirish masalalarida uzluksizlikni ta'minlash, integratsiyali ta'limni amalga oshirish, o'quv materiallarining metodik ta'minotini takomillashtirish, o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarni o'rganib chiqib, o'quvchilarning nutqiy muloqot kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish texnologiyalarining samarali omillari orqali o'z mashg'ulotlarini olib borishga harakat qiladi.

O'zbek tili fani o'qituvchisi hamisha oliy ta'lim texnik yo'nalishlari talabalarining nutqiy muloqot kompetensiyasini takomillashtirish va rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari hamda ta'limiy va didaktik yondashuvlar asosida dars mashg'ulotlari tashkil etishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'yadi. Ana shu maqsadga erishish uchun quyidagicha:

- 1) to'g'ri va ta'sirli muloqotni yo'lga qo'yishga o'rgatishning pedagogik, psixologik, metodik usullarini aniqlash;
- 2) muloqotning shaxs taraqqiyotidagi o'rnini belgilash va shu asosda muloqot qilish o'lchovini aniq belgilab beruvchi tamoyillarga asoslangan paradigmani tashkil etish yo'llari asosini anglash va anglatish;
- 3) muloqotning kommunikativ, interaktiv tomonini jarayon sifatida o'rganish, uning pedagogik va psixologik ta'sir vositasi sifatida belgilash;
- 4) to'g'ri muloqotni tashkil etishda to'rt o'lchamli: jismoniy, ruhiy, aqliy va ijtimoiy-hissiy ko'nikmani[3] rivojlantirish usullarini didaktik yondashuvlar asosida takomillashtirish;
- 4) o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan zamonaviy texnologiyalarni takomillashtirish hamda joriy etish bo'yicha tavsiyalar berish kabi vazifalarni bajarishga harakat qilish kabi yondashuvlarni amalga oshiradi.

Jamiyat va texnikaning jadal rivojlanishi inson faoliyatining barcha sohalarida, jumladan, tillarni o'rganishda ham o'z izini qoldiradi. Ta'lim jarayoni uning ishtirokchilarining axborot maydonini sezilarli darajada kengaytirish, uning mazmuni va tuzilishini yangilash, axborot manbalaridan erkin foydalanishni ta'minlash hisobiga sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishi mumkin.

So'nggi yillarda ta'lim tizimida bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqdaki, bu rivojlanish yo'lidagi ijobiy qadamlardandir. Oliy ta'limda o'zbek tilini o'qitish bo'yicha ishlab chiqilayotgan o'quv dasturlaridagi adabiyotlarining mohiyatida ham yangicha yondashuvni kuzatish mumkin. Unga ko'ra tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozishga katta ahamiyatning berilishi yosh avlodning ona tili fanini bevosita faqat nazariy qoidalar qurshovida emas, balki amaliy jihatdan yondashib mustaqil fikrlaydigan, olgan bilimlarini amalga tadbiq eta oladigan, har tomonlama qobiliyatini shakllantira oladigan motivlarni yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.



Demak, bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan dolzarb islohotlardan biri bo'lajak muhandislarni o'zbek tili ta'limiga e'tibor qaratish, ularning kasb doirasida nutqiy savodxonligi, muomala madaniyatini shakllantirish borasida eng ilg'or zamonaviy texnologiyalardan foydalanishdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. Мирзиёев Ш. Ёшлар маънавиятини юксалтириш, уларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этиш бўйича бешта муҳим ташаббус. Электрон манба: [хтtps://www.газета.уз/оз/2019/04/03/5-ташаббус/](https://www.газета.уз/оз/2019/04/03/5-ташаббус/) [1].
2. Умумий ўрта таълимнинг Давлат таълим стандартлари ва ўқув дастури. Она тили. Адабиёт. Ўзбек тили (таълим бошқа тилларда олиб бориладиган мактаблар учун). – Тошкент: Таълим тараққиёти, Шарқ, 1991. – 1-махсус сон. – Б. 246-302 [2]
3. Халикова Ш.А. Умумтаълим мактабларида ўқувчиларнинг нутқий мулоқот компетенциясини ривожлантириш методикаси. Пед. фанл. бўйича фалсафа докт. (PhD) ... дисс. Тошкент – 2022. – 168 б [3].
4. Shermatova D.Ya. “Texnika oliy ta’limida o’zbek tili va soha ta’limi integratsiyalashuvi”., NamMQI, xalqaro konferensiya -2022-yil, 274-277- b.
5. Shermatova D.Ya., “Texnika yo’nalishi talabalari o’zbek tili nutqini o’stirishning zamonaviy texnologiyalari’., NamMQI, xalqaro konferensiya.-2022-yil., 274-277- b.
6. Shermatova D.Ya “Texnika yo’nalishida ta’lim olayotgan talabalarda til kompetensiyasini shakllantirishning ahamiyati”., NamMQI, respublika konferensiya.-2022-yil., 366-370-b.

